



**Asosiy tarkib**



**Dastlabki ma'lumotlar**

2022- yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi **791,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar oyiga nisbatan **31,4 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **204,5** mlrd. so'mni (**3,7** martaga oshdi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **586,9** mlrd. so'mni (**7,3 %** ga oshdi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **122,0** mlrd. so'mni (**22,4 %** ga oshdi) tashkil etdi.


**Tarkibiy qism, ulushlarda**



**O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda**



**Uyushmagan savdo, mlrd. so'm**






**UMUMIY MA'LUMOT**

2022- yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi **791,5** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2021- yil yanvar oyiga nisbatan **131,4** % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasida barcha shahar va tumanlarda o‘shish sur‘ati kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **74,2** % va yirik korxonalar hissasiga **25,8** % to‘g‘ri keldi.





**ENG YUQORI ULUSH**

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulush Urganch shahrida **43,8** % ulush bilan **346,6** mlrd. so‘mni tashkil etdi.

**ENG QUIYI ULUSH**

Chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush Tuproqqal'a tumanida **1,4** % ulush bilan **11,1** mlrd. so‘mni tashkil etdi.

**YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY  
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA  
SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda**



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri keldi. Mazkur hajm 2022- yil yanvar oyi yakuniga ko'ra, **586,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar oyiga nisbatan **7,3** % ga o'sgan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **72,4** % ni tashkil etdi.


Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Tuproqqal'a (99,9 %), Yangiariq (99,2 %), Bog'ot (98,9 %) va Gurlan (98,7 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.





2021- yilning yanvar oyiga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Urganch shahrida – 183,1%, Gurlan tumanida– 116,1%, Bog'ot tumanida – 114,1% ni tashkil qildi.



**Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda**



	Jami, mln. so'm	2021- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so'm	2021- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so'm	2021- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>791 474,3</b>	<b>131,4</b>	<b>204 534,7</b>	<b>3,7 m.</b>	<b>586 939,7</b>	<b>107,3</b>
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	346 574,3	183,1	187 586,5	4,6 m.	158 987,7	106,7
Xiva	26 953,2	103,9	2 070,6	93,7	24 882,5	104,9
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	37 157,2	114,1	403,2	110,9	36 754,0	114,2
Gurlan	61 062,4	116,1	824,1	90,9	60 238,2	116,6
Qo'shko'pir	27 303,4	107,8	1 557,4	81,9	25 746,0	109,9
Urganch	64 611,4	103,7	2 934,5	128,4	61 676,9	102,7
Hazorasp	71 860,4	111,3	4 538,1	2,1 m.	67 322,4	107,8
Tuproqqal'a	11 124,9	100,4	16,2	109,1	11 108,7	100,4
Xonqa	39 039,1	100,9	1 947,0	87,0	37 092,2	101,8
Xiva	18 002,8	102,4	371,2	92,6	17 631,6	102,6
Shovot	41 163,6	107,7	1 055,7	69,1	40 107,9	109,4
Yangiariq	29 128,7	102,6	243,2	32,9	28 885,5	104,5
Yangibozor	17 493,0	110,5	986,9	5,0 m.	16 506,1	105,6



### Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda



### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan **3,7 %** martaga oshdi va **204,5** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **25,8 %** ulushiga to'g'ri keladi.




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **586,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan **7,3 %** ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **74,2 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK  
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING  
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Tuproqqal'a (99,9 %), Yangiariq (99,2 %) va Bog'ot (98,9 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 25,8 % ni tashkil etib, eng katta ulush Urganch shahrida (54,1 %), Xiva shahrida (7,7 %) va Hazorasp tumanida (6,3 %) kuzatildi.







**XORAZM VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**

2022- yil yanvar oyi holatiga ko'ra, o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **414,7** ming so'mni (2021- yil yanvar oyiga nisbatan **29,4** % ga oshdi) tashkil qildi. Yuqori o'sish sur'ati Urganch shahar (181,2%), Yangibozor (125,0 %), Gurlan (114,5 %), Bog'ot (112,2 %), Hazorasp (110,0 %) tumanlarida qayd etildi.

Ushbu ko'rsatkichlar hududlar kesimida solishtirilganda, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasida yuqori hajmlar Urganch shahri (2 377,1 ming so'm), Gurlan (405,2 ming so'm) va Hazorasp (363,3 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

**XORAZM VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA  
NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR  
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**



**XORAZM VILOYATI  
ULGURJI VA CHAKANA  
SAVDO TOVAR AYLANMASI  
2022- yil yanvar**

	Hajm, ming so'm	2021- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	414,7	129,4
<i>shaharlar:</i>		
Urganch	2 377,1	181,2
Xiva	285,8	102,3
<i>tumanlar:</i>		
Bog'ot	221,2	112,2
Gurlan	405,2	114,5
Qo'shko'pir	156,1	106,4
Urganch	317,7	101,6
Hazorasp	363,3	110,0
Tuproqqal'a	200,4	97,7
Xonqa	205,5	99,3
Xiva	121,1	100,7
Shovot	237,9	106,2
Yangiariq	246,9	101,2
Yangibozor	197,2	109,0

**Asosiy tarkib, foizda**




**Dehqon bozorlari**




**Chorva (parranda) bozorlari**


**O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda**



**Savdo aylanmasi hajmi va ulushi**



**Eng yuqori ulushga ega hududlar**



2022- yilning yanvar oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **122,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar oyiga nisbatan **22,4** % ga o'sdi. Shu jumladan, 12-bozor va 12-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **57,0** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati 105,7 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **65,0** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati 142,2 %) tashkil etdi.



2022- yilning yanvar oyida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida 57,0 mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida 65,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



\* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

\* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2021- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2021- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>122,0</b>	<b>122,4</b>	<b>57,0</b>	<b>105,7</b>	<b>65,0</b>	<b>142,2</b>
<i>shaharlar:</i>						
<b>Urganch</b>	30,1	134,8	21,1	123,7	9,1	170,4
<b>Xiva</b>	3,0	115,2	3,0	116,9	0,0	0,0
<i>tumanlar:</i>	0,0					
<b>Bog'ot</b>	17,9	130,4	3,4	120,0	14,5	133,0
<b>Gurlan</b>	14,2	135,4	3,3	100,9	10,9	150,9
<b>Qo'shko'pir</b>	8,2	133,3	4,5	106,2	3,7	192,3
<b>Urganch</b>	-	-	-	-	-	-
<b>Hazorasp</b>	15,3	136,5	7,8	127,7	7,5	147,1
<b>Tuproqqal'a</b>	0,5	33,4	0,3	20,5	0,3	94,1
<b>Xonqa</b>	7,3	76,7	5,2	70,0	2,1	100,0
<b>Xiva</b>	-	-	-	-	-	-
<b>Shovot</b>	16,9	112,4	3,5	76,2	13,4	128,5
<b>Yangiariq</b>	4,2	123,7	2,4	110,4	1,8	147,7
<b>Yangibozor</b>	4,4	119,8	2,7	106,7	1,7	148,4

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI:  
DEHQON BOZORLARI



1,0  
mlrd. so'm

Tuzlamalar



24,4  
mlrd. so'm

Yangi uzilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari



7,5  
mlrd. so'm

Qurtilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari  
(yong'oq, bodom, pista va  
boshqalarni qo'shgan holda)

8,3  
mlrd. so'm



Non va non  
mahsulotlari



1,3  
mlrd. so'm

Sut va sut  
mahsulotlari

1,5  
mlrd. so'm



Tuxum

7,3  
mlrd. so'm



Don mahsulotlari (mosh,  
loviya, no'xat, guruch va  
boshqalar)

1,3  
mlrd. so'm



Chorva mollari va  
parrandalar uchun har xil  
yem-hashaklar

0,4  
mlrd. so'm



Gullar, o'simlik va nihol  
ko'chatlari (manzarali va  
qishloq xo'jaligi)

1,1  
mlrd. so'm



Ziravorlar

3,0  
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

2022- yilning yanvar oyida viloyatning (Urganch va Xiva tumanlaridan tashqari) 11 ta hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi 57,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (24,4 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.




2022- yilning yanvar oyida viloyatning 11 ta (Urganch va Xiva tumanlaridan tashqari) hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi **65,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **59,3** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar savdosi **5,1** mlrd. so'mni, parrandalar savdosi **0,6** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:





2022- yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,4 % ni tashkil etib, 11,0 mlrd. so‘mga yetdi va 2021- yil yanvar oyiga nisbatan 4,6 % ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining 100,0 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o‘shish sur‘atlari, foizda**



	Jami, mln. so‘m	2021- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so‘m	2021- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so‘m	2021- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>10 954,0</b>	<b>104,6</b>	-	-	<b>10 954,0</b>	<b>118,0</b>
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	4 598,7	103,4	-	-	4 598,7	113,6
Xiva	257,2	108,5	-	-	257,2	108,5
<i>tumanlar:</i>						
Bog‘ot	401,9	106,9	-	-	401,9	106,9
Gurlan	271,4	107,9	-	-	271,4	107,9
Qo‘shko‘pir	184,2	113,8	-	-	184,2	113,8
Urganch	1 653,9	106,8	-	-	1 653,9	112,1
Hazorasp	750,2	103,1	-	-	750,2	103,1
Tuproqqal‘a	155,7	108,3	-	-	155,7	108,3
Xonqa	351,4	107,7	-	-	351,4	107,7
Xiva	260,7	110,0	-	-	260,7	110,0
Shovot	1 636,4	101,2	-	-	1 636,4	181,2
Yangiariq	172,6	107,4	-	-	172,6	107,4
Yangibozor	259,7	109,9	-	-	259,7	109,9

**Asosiy tarkib, foizda**




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

2022- yilning yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **167,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar oyiga nisbatan **7,7 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **23,0** mlrd. so'mni (**3,4%** ga kamaydi), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **143,9** mlrd. so'mni (**9,8 %** ga ko'payish) tashkil etdi.

**O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda**



Yirik korxonalar

Mikrofirma va kichik korxonalar

**Savdo aylanmasi hajmi va ulushi**

Ulgurji savdo

167,0 mlrd. so'm, 100 %


Yirik korxonalar

23,0 mlrd. so'm, 13,8 %

Mikrofirma va kichik korxonalar

143,9 mlrd. so'm, 86,2 %

**Eng yuqori ulushga ega hududlar**



Xonqa

Xiva

Urganch


Urganch sh.



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘shish sur‘atlariga ega yirik korxonalar Yangibozor tumani (211,3 m.) va Hazorasp tumani da (3,5 m.) kuzatildi.

Ulgurji tovar aylanmasida yuqori o‘zgarish sur‘ati Bog‘ot tumani (2,5 m.), Urganch shahri (109,9%) va Yangibozor tumanida (108,9%) qayd etildi.

**Ulgurji savdo aylanmasi o‘shish sur‘atlari, foizda**




	Jami, mln. so‘m	2021- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so‘m	2021- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mln. so‘m	2021- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>166 959,2</b>	<b>107,7</b>	<b>23 048,4</b>	<b>96,6</b>	<b>143 910,8</b>	<b>109,8</b>
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	96 865,6	109,9	14 549,8	94,6	82 315,8	113,1
Xiva	5 585,1	107,1	55,3	82,7	5 529,9	107,5
<i>tumanlar:</i>						
Bog‘ot	2 848,4	2,5 m.	1 640,1	-	1 208,4	106,4
Gurlan	1 607,4	107,4	-	-	1 607,4	107,5
Qo‘shko‘pir	965,0	101,2	-	-	965,0	101,2
Urganch	30 808,1	100,6	6 349,1	79,4	24 459,0	108,0
Hazorasp	2 579,8	105,4	27,0	3,5 m.	2 552,8	104,7
Tuproqqal‘a	841,6	101,3	1,7	128,0	839,9	101,3
Xonqa	6 824,7	100,5	320,1	82,3	6 504,6	101,6
Xiva	10 860,3	103,9	-	-	10 860,3	103,9
Shovot	2 569,7	100,7	-	-	2 569,7	100,9
Yangiariq	1 755,7	103,4	-	-	1 755,7	103,4
Yangibozor	2 847,7	108,9	105,4	211,3 m.	2 742,3	104,9






## YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022- yil yanvar oyi yakuniga ko'ra, **143,9** mlrd. so'mni tashkil etgan va 2021- yil yanvar oyiga nisbatan **9,8** % ga ko'paygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa **86,2** % ni tashkil qildi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda Gurlan, Qo'shko'pir, Xiva, Shovot, Yangiariq (100,0 %) tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Bog'ot tumani (42,4 %) va Urganch tumaniga (79,4 %) to'g'ri keldi.



**Tashqi iqtisodiy  
faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi**  
Tel.: (62) 224-65-16